Dehqonobod tumani mahallalarida o‘rganish ishlari olib borildi

// 24.03.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-tumani-mahallalarida-o-rganish-ishlari-olib-boril

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi “Mahallalarda tomorqalardan unumli foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi F-18-sonli farmoyishiga asosan 2025-yil 11-martdan respublikamizda “Dolzarb bir oylik” safarbarligi e’lon qilindi.

“O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati va mas’ullaridan iborat ishchi guruhi hududlarda o‘rganish ishlarini amalga oshirmoqda.

Jumladan, “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov Dehqonobod tumani hokimi Sherzod Shokirov hamrohligida tuman mahallalarida o‘rganish ishlarini olib bordi.

Mahallalardagi ijtimoiy obyektlar ko‘zdan kechirilib, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olindi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati